

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida 2025-yilda
Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar
to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar Jamiyatning 2022-yil 4-iyuldagi 647-H-son buyrug‘iga asosan tashkilot rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, kadrlar bo‘limi boshliqlari, bosh hisobchilar hamda xarid jarayonlarida ishtirok etuvchi, shartnomalar bilan ishlovchi mas‘ul xodimlar tomonidan, shuningdek ishga yangi qabul qilingan va lavozimi o‘zgargan xodimlar tomonidan to‘ldirildi va har bir tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tuzilmasi o‘z mas‘ul shaxslari tomonidan tahlillar o‘tkazildi:

T/r	Bo‘linma hudud nomi	Deklaratsiya turi		
		Yillik	Ishga qabul qilinganda	Lavozim o‘zgarganda
1	Markaziy apparat	129	181	64
2	Hududiy bo‘linmalar	420	1765	1972
3	Boshqa tizim tashkilotlari	176	841	150
Jami	5 698 ta	725	2787	2186

Tahlil natijasida jami **155 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanib, **8 ta** xodim bilan **mehnat shartnomasi bekor qilindi**, **16 ta** xodim **rotatsiya qilindi**, qolgan holatlar rahbar tomonidan nazoratga olindi. Barcha nazorat ostiga olingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlangan xodimlarga manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlari amalga oshirildi.